

## KITOB - MA'NAVIYAT KO'ZGUSI

*Bahorova Rohila, Samarqand viloyati*

*Kattaqo'rg'on tumanidagi 29-maktab kutubxonachisi*

**Annotatsiya:** Ushbu ma'qolada kitob mutoalasi va uning inson hayotidagi ahamiyati, kitob o'qishning foydalari haqida fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kitob mutoalasi, kitobxonlik madaniyati, globallashuv davri, tib qonunlari, ravon nutq, jamiyat taraqqiyoti, komillikka erishish, ma'naviy yuksalish, shaxsiy rivojlanish.

Kitob insoniyatning ma'naviy durdonalarini to'plab, kelajak avlodlarga yetkazuvchi vosita, odamzod yaratgan mo'jizalardan biri hisoblanadi.

Kitob insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i hamda cheksiz bilimlar manbayi, fikrlash quroli, kitobxon tafakkurini kamolotga yetkazuvchi omilhamdir. Odamzod so'zlashish nutqidan tashqari kitob o'qiy olishi va unga amal qilishi, fikrlash qobiliyati orqali hayvonlardan farq qiladi. Dono xalqimiz kitob haqida shunday deydi, - «Kitob ko'rmagan kalla - giyoh unmagan dala». Bu hikmatli so'zda shunday ma'no borki, giyoh o'smagan dalani hech kimga foydasi bo'lmaganidek, kitob o'qib, ma'naviy va ma'rifiy dunyosini boyitmagan insonning ham atrofida qilarga ham jamiyatga ham arziqli nafi tegmaydi. Kimningdur kamolotiga ham o'zining yetuk marralarga erishib, yuqori cho'qqilarni zabt etishiga ham odamzotga - kitoblardagi qimmatbaho ilmlarni anglamoq darkor bo'ladi.

Ayniqsa, hozirgi globallashuv davri va internet tarmoqlarining cheksiz darajada rivojlanishi natijasida insonlarni tarmoqlardagi turli-hil befoyda va bema'ni ma'lumotlarni ko'rishi va ulardan xulosa chiqarib, hattoki tun-u kun telefon qarshisida butun umrini sarflab qo'yayotgan bir payda - biz ertangi kunimiz poydevori bo'lmish - yoshlarni kitobga bo'lgan muhabbatini oshirishimiz, ularni kitobxonlikka bo'lgan ishtiyoqini qayta shakllantirishimiz zarur. Bu tizimni avvalo oiladan, ota-onadan boshlab, keyingi o'rinlarda bog'cha, maktab, kollej va litseylar, hamda oliy ta'lim muassasalarida davom ettirishimiz kerak bo'ladi.

Ajdodlarimiz hayotida ham kitoblar muhim rol o'ynagani bois, koinot va falsafa ilmlarini, tabiyat sirlariyu tib qonunlarini ishlab chiqqanlar va ular qoldirgan ma'naviy xazinasidan foydalanish orqali biz avlodlar hali ham o'zimizning bilimlilik darajamizni oshirib, ilmimizni charhlashimiz mumkin bo'lyapti.

Mir Alisher Navoiy bobomiz shunday degan - «Kitob - beminnat ustoz, har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasini bilan oshno eta oladi». Azaldan bobolarimiz kitobni boylikdan afzal bilganlar. Bunga misol qilib, Abu Ali ibn Sino bobomiz Buhoro hukmdori Nuh ibn Mansurni davolagach, evaziga oltin-kumushga to'la sandiq emas,

balki saroy kutubxonasidan foydali ish imkoniyatini so'rganlarini aytishimiz ham mumkin.

Kitoblardan har kim o'zi uchun hayot ma'nosini yoki o'z sohasini rivojlantirishga kerak bo'ladigan bilimlarni topishi mumkin. Kitob o'qishning foydalari:

- Ma'noli va ravon nutq
- Shaxsiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish
- O'z-o'zini rivojlantirish
- Atrofidagilar va oila a'zolariga ma'naviy va bilim jihatidan naf keltirish
- Yangi ilmlarni o'zlashtirish
- O'zligini anglash va o'zgalarni fikrini to'g'ri tushunish
- Oila va farzand tarbiyasida to'g'ri yondashish
- Jamiyatda ma'lum mavqeyga va insonlar hurmatiga erishish
- Boylik ortirish va ma'naviy yuksalish
- Komillikka erishish.

Kitoblar asosan, ilmiy, badiiy hamda diniy kitoblarga bo'linadi.

Masalan **Kalila va Dimna** badiiy asarini o'qigan inson ham ruhan ham ma'nan ozuqa oladi. Quyida undan jumlar keltirish orqali fikrimni yanada kengroq yoritib berishga harakat qilaman:

«-Insonni butun hayvonlardan yuqori qo'ygan, uni dunyoning butun sirlaridan voqif etgan **4 narsa** bordir: hikmat, aql, qanoat va adolat. Ilm - taxsil etmoq, savod chiqarmoq va har narsani atroflicha tushuna bilmoq - *hikmatga*; tadbir, sabr, nazokat, marhamat - *aqlga*; hayo, oliyjanoblik, o'zini qo'lga olmoq va o'zining haq-huquqini bilmoq - *qanoatga*; to'g'rilik, va'daga vafo, ezgu ishlar qilmoq va yaxshi xosiyatli bo'lmoq - *adolatga* tegishlidir» - deyilgan.

Inson bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli, baxtli bo'lishining muhim omili bu - kitobga do'st bo'lish, hamisha kitob o'qish har qanday vaqt tig'izlikda ham kunda bir soat bo'lsada mutoala uchun vaqt ajratishdir. Kitobga hamroh bo'lgan inson faqat vas faqat odamiylik saboqlarini o'rganadi. Ayniqsa, yoshlarning baxt-u kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitob mutoalasining alohida o'rni bor.

Har qanday muvaffaqiyatning kaliti ham keljagimiz poydevori ham kitobdir. Shunday ekan bugungi kun farzandlarini global internet tarmoqlari rivojlangan vaqtda turli xil saytlar va befoyda telegram kanallarida qimmatli vaqtini sarflamasliklari uchun imkon qadar ularni kitobga oshno, ilmga chanqoq qilib tabiyalashimiz darkor. Faqat maktabdagi, oliygohlardagi ustozlar emas, balki uydagi ota-onalarimiz ham bolasiga to'g'ri o'rnak bo'lish orqali ularni kitobga mehrini oshirish mumkin.

Mutoala qilish insonning tasavvur dunyosini cheklab qo'ymaydi va dunyoqarashini ham oshiradi; irodani mustahkam qiladi. O'z-o'zidan keng fikrlaydigan, sabr-qanoatli bolalar hayotning salgina sinovida ham ojizlik qilib turli xil salbiy illatlarga ruju qo'ymaydilar va noto'g'ri tashviqotlariga ergashmaydilar.



Insonning ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo'q. shu bois azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilm-u odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan.

Demak, xulosa shuki kitobga mehr qo'yish orqali butun jamiyatni asrashimiz va yanada tez suratlarda rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishimiz mumkin ekan.

